

O`SMIR YIGITLARNI MUSTAQIL HAYOTGA TAYYORLASH ASOSLARI

Razzoqova Nozira Baxromqul qizi

Chiqchiq davlat pedogogika universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash masalalariga doir pedagog va psixolog olimlarning ilmiy izlanishlari tahlil etilgan. Shuningdek, o'smir yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlashning o'ziga xos pedagogik-psixologik shart-sharoitlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'smir yigit, mustaqil hayot, oilaviy hayot, ijtimoiy omillar, biologik omillar.

KIRISH

Farzand dunyoga kelishi bilan uni tarbiyalash, ijtimoiy, ma'naviy muhofaza qilish jamiyatning barcha institutlari oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Bu o'rinda ta'lim tizimi zimmasiga muhim mas'uliyat yuklangan bo'lib, uni amalga oshirish borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

ASOSIY QISM

Olimlarning uzluksiz ta'lim tizimida o'smir yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlash jarayoniga bag'ishlangan ilmiy asarlarining talqini va bu borada o'tkazilgan izlanishlar kunning dolzarb masalalari hisoblanadi.

Mamlakatimizda yoshlar va o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari bo'yicha bir qancha pedagoglar ham o'z tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ayrim pedagoglarning yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlash muammosining ba'zi bir jihatlarini keltirib o'tamiz.

O.Musurmonova o'z ilmiy ishlarida [4] umumiy o'rta ta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarini xalqimizning azaliy an'analari, udumlari, tili, dini, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, sabr-toqat, adolat, ma'rifat, insonparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Olima o'quvchi-yoshlar ongiga mazkur yuksak axloqiy- ma'naviy qadriyatlarni singdirish uchun ma'naviy madaniyat muammosini nafaqat falsafiy, balki pedagogik muammo sifatida tadqiq etib, ta'sir manbalari asosida o'quvchilar, shu jumladan, o'smirlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini tadqiq etgan.

O'smirlik yoshi bolalarning xulq-atvorida keskin o'zgarishlar sodir bo'lishi bilan xarakterlanadi, buni har bir bolani tashqi tomondan kuzatish orqali osongina bilib olish mumkin.

Psixolog olimlarning fikrlariga tayangan holda o'smir shaxsining shakllanishiga ikki xil [3], ya'ni ijtimoiy va biologik omillarning tarbiyaviy ta'siri mavjud ekanligini ta'kidlash joiz. Ijtimoiy omillarga: umumiy o'rta ta'lim maktabiga o'tish va bu bilan bog'liq bo'lgan o'quv faoliyatidagi, o'quvchi va o'qituvchilar bilan muloqatdagi o'zgarishlar; mustaqil va amaliy ishlarni ko'proq bajarish natijasida bolaning oiladagi o'rni ham o'zgaradi; jismoniy va aqliy imkoniyatlarining o'sib borishi munosabati bilan unga ko'proq ishona boshlaydilar. Biologik omillarga: jinsiy yetilishning boshlanishi, shuningdek, barcha a'zolarining jismoniy rivojlanishi kiradi.

O'smirlar tarbiyasida jinslar xarakteri, oila turlari, ota-onalarning ijtimoiy kelib chiqishiga e'tibor berish tarixiy xarakter kasb etadi. Jumladan, qiz bola tarbiyasida onaning, o'g'il bola tarbiyasida otaning roli yetakchi o'rinda bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra erkaklar va ayollar teng huquqqa ega bo'lishlariga qaramasdan, ularda jinslararo xususiyatlarda, oila, jamiyatdagi vazifalarda, kasbiy munosabatlarda farq mavjud. Buni G'arb falsafasida maskulizm va feminizm yo'nalishlarida ilmiy talqin etiladi.

O'smirlarni mustaqil hayotga tayyorlashda axloqiy ma'naviy va psixologik xususiyatlarni nazarda tutmoq zarur. Bu o'rinda:

- oilada ota yoki onaning roli va o'rni;
- oila a'zolarining qiz yoki o'g'ilga bo'lgan ishonchi, mehri;
- o'smirlarga do'stlar munosabati;
- do'stlar va sinf jamoasi ichidagi o'rni;
- o'g'il bolaning qanday oilada o'sayotganligi (to'liq, noto'liq, tinch, notinch, tadbirkor, ziyoli, ko'pmillatli va boshqa oilalar);
- o'smirning qobiliyati, mayli, qiziqishi, intilishi, o'qish, o'z burch va vazifalariga mas'uliyat bilan munosabati;
- o'smir o'sayotgan oilaning jamiyatda tutgan o'rni muhim rol o'ynaydi.

O'smir yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlash sog'lom avlodni dunyoga keltirish va tarbiyalashning tarkibiy qismi bo'lib, avvalo u sog'lom turmush tarzini shakllantirish negizida qaror topadi.

F.Xidirovaning o'g'il-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashni quyidagi mezonlar belgilaydi: nikoh va oila munosabatlari, oilaviy hayotni tashkil etish, uy xo'jaligini boshqarish, oila a'zolari o'rtasidagi muomalani tashkil etish, turli taom va pishiriqlar pishirish, mehmon kutish, tikish-bichish ishlarini bajara olish, oila a'zolari salomatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish, shaxsiy gigienani saqlash qoidalari xususida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lish, shaxsiy gigienani saqlash, biologik qovushishning mohiyatini tushunish, tartibsiz intim munosabatlarning inson organizmiga salbiy ta'siri, turli xil

tanosil kasalliklar, shuningdek, bepushtlikni keltirib chiqaruvchi omillar, ushbu kasalliklar kelib chiqishining oldini olish, farzandlar tarbiyasini yo'lga qo'yish, oila budjetini yaratish, undan oqilona, maqsadga muvofiq foydalanish kabi masalalar yuzasidan nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishdan iborat.

O'smirlik yoshiga o'tayotgan davrda ayniqsa o'g'il bolalarning xulq-atvorida salbiy alomatlar ham ro'y beradi. Masalan, qaysarlik, o'jarlik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, o'qituvchining aytganini o'z vaqtida bajarmaslik kabi odatlar o'qituvchiga ancha qiyinchilik tug'diradi. O'qituvchi o'z pedagogik mahorati bilan o'smir yoshidagi o'g'il bolalarni yomon yo'llarga kirib ketmasligining oldini olishi kerak. Shu boisdan, pedagog o'quvchining faqat xulq-atvori va axloqiga baho bermasdan, psixologik sabablarini ham bilishi zarur.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, o'smir yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlash samaradorligi psixologik-pedagogik qoidalarga amal qilish bilan belgilanadi. Ya'ni:

o'smirlarni mustaqil hayotga tayyorlashda ularning yosh, shaxsiy, jinsiy xususiyatlarini inobatga olib, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ularga individual munosabatda bo'lish;

o'smirni pedagogik-psixologik diagnostika qilish asosida, ular bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. Buning uchun esa psixodiagnostika dasturini yaratish;

o'smir yigitlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlar uning yoshi, dunyoqarashi, mayli, qobiliyati va qiziqishiga mosligini inobatga olish;

o'smir yigit bilan olib boriladigan tarbiyaviy tadbirning hayotiyligi, qiziqarliligi, o'smirning hayotiy pozitsiyasiga mosligi;

o'smir bilan olib boriladigan tarbiyaviy tadbirni uyushtirishda ta'lim muassasasi va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaeva M. O'smirlarni oilaviy hayotga ma'naviy tayyorlashning ijtimoiy pedagogik shart-sharoitlari. («Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fani- ni o'qitish misolida). Ped. fan. nom diss. – T.: 2014. –132-b.

2. Davletshin M.G. Psixologiya texnicheskix sposobnostey shkolnikov: - Avtoref. diss. ... dok. ped. nauk. – T., 2011. –S. 34.

3. Devid G.Mayers. Psixologiya. © 2010 by Worth Publishers 205 page.

4. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. – T.: «Fan», 2013. –113-b.

5. Shaamirova Yu.K. Noto'liq oilalarda o'smirlarni milliy-ma'naviy tarbiyalash. Ped. fan. nomz. ... diss. - T., 2016. –89-90-b.